

YUSUFBEK HOJI BUYUK DAVLAT ARBOBI YOXUD O'G'LI TAQDIRIGA BEFARQ OTA?

Amonova Ruxshona

Navoiy davlat Universiteti Tillar Fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20609783>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek romanchiligining „shohi“ bo'lgan, Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ asariga bag'ishlanadi. Bosh qahramonlardan biri bo'lgan Yusufbek Hojining bir ota sifatida tahlil qilinadi va oila boshlig'i sifatida o'z vazifasini qay darajada ado etganligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yusufbek Hoji, mas'uliyatsiz ota, davlat arbobi, jamiyat fojiasi.

Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ asari qancha vaqt chig'iriqlaridan o'tsa-da, o'z ahamiyatini, kitobsevarlar qalbidagi o'rnini yo'qotmaydigan „shoh romanimizdir“. Bir qarashda asar shunchaki „sevgi qissasi“ dek tuyulsa-da, muallifning tili b/n aytganda ushbu roman „tariximizning eng qora, kir kunlari“ to'g'risida so'zlaydi. Qisqasi, Abdulla Qodiriy bu asarda millatning dardi, osha davrning fojiali manzaralarini chizib bergan. Romanda bosh qahramonlardan bo'lmish Yusufbek Hoji - dono siyosatchi, yurt tinchligi uchun jon kuydirgan vatanparvar sifatida e'tirof etiladi. Lekin inson faqat jamiyat a'zosi emas, balki oila ustuni hamdir. Nega butun bir yurtning taqdirini o'ylagan inson o'z xonadonidagi fojialarni ko'rib ularni to'xtatishga qodir bo'lmadi? Uning „andishasi“ befarqlik emasmi? Ushbu maqolada Yusufbek Hoji obrazini aynan ota va bir oila boshlig'i o'laroq tahlil qilishni maqsad qildim.

„O'tkan kunlar“ romani har bir davrda eng ko'p tahlil qilingan va ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan asarlardan biridir. Undagi qahramonlar doimo tadqiqotlar markazida turishi hech kimga sir emas. Olimlar- Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Izzat Sulton, Bahodir Karimov kabi tadqiqotchilar asardagi Yusufbek Hoji haqida qimmatli fikrlar bildirishgan. Masalan, Bahodir Karimov u to'g'risida shunday fikrlarni aytadi: „O'tkan kunlar“ romanidagi Yusufbek Hoji aynan hojiligi e'tibori b/n yuksak martabaga ega qahramondir. U maishiy va ijtimoiy jihatdan aql-zakovati, fahm-farosati, go'zal odob-muomala - munosabati, qo'yingki, barcha fazilatlarini b/n boshqalardan ajralib turadi. Bu siymo tal'atidan taralgan yog'du butun romanga oydinlik bag'ishlaydi“. Darhaqiqat bu fikrlar isbotini asardagi voqealar orqali Yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin. Masalan, Yusufbek Hoji qipchoqlarni qirg'in qilmoqchi bo'lgan beklarni to'xtatishga harakat qiladi. Uning :”Biz o'rusga qarshi turish o'rniga o'zimizning go'shtimizni o'zimiz yemoqdamiz“ mazmunidagi gapini uning ijtimoiy fahm-farosatidan darak beradi. Qolaversa, Bahodir Karimov ta'kidlagan maishiy go'zal odobni Hojining o'g'li Otabek b/n munosabatida ko'rish mumkin. Otabek birinchi marta Marg'ilondan uylanib qaytganda, Yusufbek Hoji o'g'lini tushunadi. U b-n sen-menga bormaydi.

Qodiriyshunoslikning “qiroli” hisoblangan Matyoqub Qo'shjonov o'zining “O'zbekning o'zligi” kitobida Yusufbek Hojini shunday tariflagan :”Yusufbek Hoji - butun bir millatning aql-idroki va andishasini o'zida mujassam etgan siymo. U nafaqat xonliklar aro nizo to'xtatib turuvchi diplomat, balki o'zbekona bosiqlik va mulohazakorlikning eng oliy cho'qqisidir“. Olim aytganidek, Hojining bu andishasi uning har bir harakatida ko'rinadi. Biroq shunday savol tug'iladi davlat ishlarida faol va ma'suliyatli inson har doim ham yaxshi oila boshlig'i bo'larmikin? Jiddiy masalalarda ham andisha chegarasidan chiqmaslik doim ham to'g'rimi yo befarqlik?

O'zbekona urf-odatlarimizga ko'ra oiladagi muhim masalalarni hal qilish va qaror chiqarishda mas'ul shaxs erkakdir. Shunchaki xushmuomala, andishali bo'lish har doim jiddiy

oqibatlarga olib kelmaydi deb kafolat bera olmaymiz. Bizga ma'lumki, asarda Otabek onasining orzu - havaslari va odamlar nima deydi singari tashvishlarining qurboni bo'ldi. Bir qarashda barcha ayb O'zbekoyimning o'zidadek ko'rinsa-da, masalaga chuqurroq yondashilganda farzand taqdirini hal qilishdek jiddiy masalaga befarq bo'lgani uchun Yusufbek Hojini ham bo'lib o'tgan fojialarga aybdor sifatida ko'rishga majbur bo'lamiz, chamamda

Biz maqolada ko'rib chiqqan Yusufbek Hoji - murakkab shaxs. U mas'uliyatli, xalaqchil davlat arbobi sifatida mukammal, lekin oila boshlig'i, ota sifatida andishaga asir bo'lgan inson. Demak, Qodiriy bu qahramon orqali jamiyat fojiasi oiladan boshlanishini ko'rsatib bergan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar: Roman. – Toshkent: Sharq, 2014. – 400 b.
2. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 160 b.
3. Karimov B. Qodiriy qadri: Ilmiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2003. – 214 b.